**“MINERAL RESURSLAR INSTITUTI” DM HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.31/2025.27.12.GM.02.01.M
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

RAXMATULLAYEV JASURBEK FARXOD O‘G‘LI

ZIYOVUDDIN MA’DANLI MAYDONI OLTIN KONLARIDA MA’DANLASHUVNI NAZORAT QILUVCHI OMILLAR VA ULARNING GEOLOGIYA-QIDIRUV ISHLARI SAMARADORLIGIGA TA’SIRI

04.00.02 – Qattiq foydali qazilma konlarining geologiyasi, ularni qidirish va razvedka qilish. Metallogeniya va geokimyo.

**GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2026

UO‘K:553.3/.9:553.41:622.342(575.1)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Raxmatullayev Jasurbek Farxod o‘g‘li
Ziyovuddin ma’danli maydoni oltin konlarida ma’danlashuvni nazorat qiluvchi omillar va ularning geologiya-qidiruv ishlarini samaradorligiga ta’siri.....3

Рахматуллаев Жасурбек Фарход угли
Рудоконтролирующие факторы золоторудного оруденения месторождений Зиаэтдинского рудного поля и их влияние на повышение эффективности геологоразведочных работ.....23

Rakhmatullayev Jasur Farhod ugli
Ore-controlling factors of gold deposits of the Ziaetdin ore fieldand their influence on increasing the efficiency of geological exploration.....43

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 46

**“MINERAL RESURSLAR INSTITUTI” DM HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.31/2025.27.12.GM.02.01.M
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

RAXMATULLAYEV JASURBEK FARXOD O‘G‘LI

ZIYOVUDDIN MA’DANLI MAYDONI OLTIN KONLARIDA MA’DANLASHUVNI NAZORAT QILUVCHI OMILLAR VA ULARNING GEOLOGIYA-QIDIRUV ISHLARI SAMARADORLIGIGA TA’SIRI

04.00.02 – Qattiq foydali qazilma konlarining geologiyasi, ularni qidirish va razvedka qilish. Metallogeniya va geokimyo.

**GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/GM233 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O’zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.mridm.uz) va “Ziyonet” axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Isoqov Maqsud Uzoqovich** geologiya-mineralogiya fanlari doktori
Rasmiy opponentlar:	**Karabayev Mamatxon Sadirovich** geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
	Ishbobayev Timur Bobakulovich geologiya-mineralogiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Yetakchi tashkilot:	**“O‘zbek geologiya qidiruv” AJ**

Dissertatsiya himoyasi “Mineral resurslar instituti” DM huzuridagi DSc.31/2025.27.12.GM.02.01.M raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil “18” 06 soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Olimlar ko‘chasi, 64-uy. Tel: (71) 209-08-93; e-mail: info@mridm.uz; gpniimr@exat.uz.).

Dissertatsiya bilan “Mineral resurslar instituti” DMning Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (3491 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Olimlar ko‘chasi, 64-uy. Tel: (71) 209-08-93).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil “02” 06 kuni tarqatildi.
(2026 yil “15” 05 dagi 31 raqamli reestr bayonnomasi)

V.D. Soy
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi o‘rinbosari, g.-m.f.d., professor

O‘.A. Xafizov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, g.-m.f.f.d. (PhD)

M.M. Pirnazarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi g.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda oltinga bo‘lgan talab ortib borishi kuzatilmoqda, bu esa oltinni qazib olish sur’atlarining jadallashishiga va zaxiralarning kamayishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda oltin mineral xomashyo bazasini mustahkamlashning dolzarb vazifalaridan biri bu qazib olishga tayyorlangan konlarda zahiralarning ishonchliligini oshirish hisoblanadi.

Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda zahiralarning ishonchliligini oshirish uchun geologiya-qidiruv ishlari uslubiyotining sifatiga ta’sir etuvchi ma’danlashuvning joylashish qonuniyatlari hamda omillarini har tomonlama o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunday ilmiy yondashuv yangi konlar zahiralarini asosli baholash va mineral xomashyo bazasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Respublikada oltinning mineral xomashyo bazasini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Natijada so‘ngi yillarda Ziyovuddin ma’danli maydonida yangi oltin konlari aniqlandi (Yangi-Davon, Tashkan, Tashkan-1 va boshqalar) hamda yangi oltin ma’danli obyektlar bashorat qilinmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “.....iqtisodiyot uchun zarur mineral xomashyo bazasini kengaytirish.....”[1] vazifalari belgilab berilgan. Bu borada Ziyovuddin ma’danli maydonida yangi oltin konlarini ochish va baholashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmonida, 2018-yil 1-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3578-son, 2021-yil 21-apreldagi “Geologiya sohaga investitsiyalarni faol jalb etish, tarmoq korxonalarini transformatsiya qilish va respublika mineral xom ashyo bazasini kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-5083-son va 2022-yil 3-avgustdagi “Mahalliy mineral xom ashyo resurslari asosida yuqori texnologik metallar ishlab chiqarishni tashkillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-343-sonli qarorlari hamda mazkur faoliyatga doir boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning VII – “Yer to‘g‘risidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xom-ashyolarni qayta ishlash)” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘larida turli xil geologik izlanishlar ko‘plab tadqiqotchilar jumladan: A.S. Adelung, G.S. Chirkizov, N.N. Salkova, X.N. Baymuhamedov, X.R. Rahmatullayev,

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF – 60-son Farmoni.

S.K. Smirnova, V.S. Korsakov, R.P. Badalova, E.A. Dunin-Barkovskaya, K.K. Pyatkov, I.A. Pyanovskaya, A.P. Xolopov, A.S. Qurbonov, G.P. Chebotaryeva, E.S. Sorokin, G.V. Gorev, L.L. Makarskiy, I.T. Cheban, T.Y. Vidusov, V.L. Shadrin, A.X. Turesebekov, B.D. Klimenko va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Oxirgi yillarda hududda ilmiy izlanishlar M.M. Pirnazarov, V.D. Soy, I.V. Korolyova, L.R. Sodiqova, M.S. Karabayev, X.D. Ishbayev, O.T. Razikov, Sh.P. Alimov va boshqalar tomonidan bajarilib kelinmoqda. Qidirish usulubiyotiga ta'sir ko'rsatuvchi geologik omillarni o'rganish bo'yicha V.P. Fedorchuk, Yu.S. Shixin, P.A. Shextman, V.A. Korolyov, V.Y. Zimalina, S.I. Denisov, X.A. Akbarov, D.S. Muqimova, N.N. Korolyova, M.U. Umarxodjayev, B.A. Isaxodjayev, M.A. Mirusmonov, G.S. Tillayeva, M.U. Isoqov va boshqalar katta hissa qo'shganlar.

So'nggi yillarda geologiya-qidiruv ishlarini ilmiy-uslubiy ta'minlash bo'yicha tadqiqotlar asosan ma'dan tanalarining joylashish qonuniyatlari va ularning morfologiyasini o'rganishga, qidirish bosqichida hisoblangan va ekspluatatsion qidiruv bosqichida olingan zahiralarning farqlanish sabablarini tahlil qilishga, geologik-qidiruv ishlarini takomillashtirish maqsadlari uchun qazib olinayotgan oltin ma'danli konlarining zamonaviy sistematikasini tuzishga va boshqa masalalarni hal etishga qaratilgan.

Shu bilan birga, Zirabuloq-Ziyovuddin tog'laridagi Ziyovuddin ma'dan maydonining oltinga bo'lgan istiqbollari yetarli darajada o'rganilmagan. Oltinga olib borilayotgan geologiya-qidiruv ishlarining samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan ilmiy va metodik masalalar to'liq hal etilmagan, oltin zaxiralarini baholashning ishonchliligi va haqqoniyligini oshirishga doir tadqiqotlar dolzarb bo'lib qolmoqda. Ushbu tadqiqotlarning amalga oshirilishi O'zbekistondagi oltin ma'danli konlari zaxiralarini baholashning ishonchliligini ta'minlaydi va olib borilayotgan geologiya-qidiruv ishlari samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti "O'zbek geologiya qidiruv" AJ geologiya qidiruv ishlari rejasining "Ziyovuddin ma'danli maydoni Yangi Davon konining markaziy qismini +300 gorizontgacha o'rganish" (2012-2024) loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Ziyovuddin ma'danli maydonidagi oltin konlari ma'danlashuvini nazorat qiluvchi omillarni o'rganish va ularni geologiya-qidiruv ishlari uslubiyotini samaradorligiga ta'sirini aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Ziyovuddin ma'danli maydonidagi oltin ma'danlashuvining joylashuv qonuniyatlarini tahlil qilish va nazorat qiluvchi omillarini aniqlash;

Ziyovuddin ma'danli maydonida tarqalgan oltin ma'dan tanalarini morfologik shakllarini o'rganish va kompyuter dasturlari yordamida modellashtirish;

geologiya-qidiruv ishlari samaradorligini oshirish maqsadida Ziyovuddin ma'danli maydoni oltin konlarining tasnifini yaratish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Ziyovuddin ma'danli maydonidagi oltin konlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti oltin konlarining hosil bo‘lish va joylashuv qonuniyatlari, ma’danlashuvni nazorat qiluvchi omillar, ma’dan tanalarining morfologiyasi, moddiy tarkibi, ma’dan tanalari atrofidagi metasomatik o‘zgarishlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarda an’anaviy va zamonaviy usullar, jumladan, dala kuzatuvlari majmuasi (konlarni tekshirish, namunalar olish, geologik ma’lumotlarni hujjatlashtirish va boshqalar), zamonaviy yuqori aniqlikdagi analitik tadqiqotlar (ICP-MS, Jeol, kimyoviy tahlil, probir tahlil va boshqalar), shuningdek, statistik metallogenik tahlil usullari, geologik-strukturaviy tahlil, kompyuter texnologiyalari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ziyovuddin ma’danli maydonidagi oltin ma’danlashuvini Qoraqo‘ton yer yorig‘i va litologik jihatdan xilma-xil bo‘lgan katarmay svitasi hosilalari mintaqaviy omillar sifatida nazorat qilishi aniqlangan;

oltin ma’danlashuvining shakllanishi va joylashuv qonuniyatlari kompleks tahlillar asosida ochib berilgan va zaxiralar hisoblashning ishonchliligiga ta’sir qiluvchi asosiy omil strukturaviy omil ekanligi aniqlangan;

Ziyovuddin ma’danli maydonidagi oltin ma’dan tanalarining morfologik jihatdan oltin-sul’fid-kvarsli geologik-sanoat turining yangi qoraqo‘ton kichik turiga mansubligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Ziyovuddin ma’danli maydonida oltin ma’dan konlari zaxiralarini baholashning ishonchliligini nazorat qiluvchi geologik omillarni aks ettiruvchi tizim ishlab chiqilgan;

oltin konlari ma’dan tanalari tuzilishining uch o‘lchamli raqamli (3D) modeli yaratilgan;

Ziyovuddin ma’danli maydonining shimoliy-sharqiy qismida va maydon tashqarisining sharqiy va shimoli-g‘arbiy davomida yangi oltin konlari ochish ehtimoli yuqori ekanligi asoslangan va qidiruv ishlari olib borish tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dala sharoitida oltin konlarini o‘rganish, ulardan olingan namunalarni “O‘zdavstandart” tomonidan sertifikatlangan laboratoriya tahlillari (ICP-MS, Jeol, kimyoviy tahlil, probir tahlil va boshqalar) va litsenzion kompyuter dasturlari yordamida ma’lumotlarga statistik ishlov berishga asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Ziyovuddin ma’danli maydoni oltin konlari (Qoraqo‘ton, Yangi Davon,Tashkan, Tashkan-1 va b.) bo‘yicha geologiya-qidiruv ishlari ma’lumotlarini umumlashtirish va oltin konlarida ma’danlashuvni nazorat qiluvchi mintaqaviy va mahalliy omillarni aniqlash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ma’dan nazorat qiluvchi omillar Ziyovuddin ma’danli maydonida geologiya-qidiruv ishlari samaradorligini oshirish va yangi oltin konlarining hisoblangan zahiralarini ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ziyovuddin ma’danli maydonida oltin ma’danlashuvini nazorat qiluvchi omillarni aniqlash bo‘yicha olingan natijalar asosida:

oltin ma’danlashuvining joylashuv va hosil bo‘lish qonuniyatlari bo‘yicha xulosalar “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ amaliyotiga joriy qilingan (Tog‘-kon sanoati va geologiya

vazirligining 2026 yil 15 maydagi 08-2802-son ma’lumotnomasi). Natijalar geologiya-qidiruv ishlarini optimal uslubiyotini tanlashda asos bo‘lib xizmat qiladi;

Ziyovuddin ma’danli maydonida (Chambar, Kamina va b.) shuningdek, maydon tashqarisida ma’dan zonasining sharqiy va shimoliy-g‘arbiy davomida aniqlangan bashorat-istiqbolli maydonlar “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ amaliyotiga joriy etildi. (Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining 2026 yil 15 maydagi 08-2802-son ma’lumotnomasi). Natijalar Ziyovuddin ma’danli maydonida yangi sanoat darajasidagi olin konlarini aniqlashga istiqbollarini asoslaydi;

ma’dan tanalarini joylashuvini nazorat qiluvchi omillarning qidirish uslubiyotiga ta’sirini hisobga olish bo‘yicha taklif va tavsiyalar “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ amaliyotiga joriy etildi. (Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining 2026 yil 15 maydagi 08-2802-son ma’lumotnomasi). Natijalar o‘xshash bo‘lgan konlarda zaxiralarni hisoblash ishonchliligini oshirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, respublika nashrlarida 4 ta va xorijiy jurnallarda 2 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 124 bet matn, 12 ta jadval, 34 ta rasmdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari yoritilgan, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan, ishning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnalogiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, olingan natijalarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ko‘rsatilgan, olingan natijalarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati hamda ularni amaliyotga tatbiq etish keltirilgan, chop etilgan ishlarga dissertatsiyaning tuzulishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘larining geologik tuzilishi va o‘rganilganlik xolati”** deb nomlangan birinchi bobida Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘larining oltin ma’danlashuvining o‘rganilganlik tarixi, geologik tuzilishi hamda metallogenik xususiyatlariga bag‘ishlangan. Zirabuloq-Ziyovddin tog‘lari Tiyon-Shon orogen kamarining bir qismi bo‘lib, 80 yildan ortiq vaqt davomida o‘rganilib kelinmoqda. Hududda tarqalgan tog‘ jinslari ikki qavatga bo‘lingan: geterogen mezozoygacha bo‘lgan fundament tog‘ jinslari va cho‘kindi qoplama tog‘ jinslari.

Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘lari va unga tutash hududlarda oltin ma’danlashuvining geologik o‘rganilganligi tarixi shartli ravishda 3 bosqichga bo‘lingan. Birinchi bosqich 1940-1960-yillarni qamrab oladi. Bu davrda geologlar A.S. Adelung, G.S. Chirkizov, N.N. Salkova va boshqalar Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘larining geologiyasi va foydali qazilmalari bo‘yicha umumiy tadqiqotlar olib borganlar. Ushbu davrda Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘larining shimoliy-g‘arbiy qismida oltinning kichik

namoyondalari (Tillatog‘ va boshqalar) aniqlangan. Bu topilmalar Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘larida oltin ma’danlashuvini batafsil o‘rganish va sanoat talablariga javob beradigan oltin obyektlarini qidirish uchun asos bo‘lib xizmat qilgan.

Ikkinchi bosqich (1960-1990-yillar) hududda Qoraqo‘ton oltin koni ва bir qator kichik oltin ma’danli obyektlari ochilishi bilan bog‘liq. Ingichka volfram konining ochilishi Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘larining nodirmetalli metallogenik ixtisoslashuvini aniqlagan bo‘lsa, tadqiqotlarning ikkinchi bosqichida ochilgan oltin ma’danli obyektlar mintaqaning oltin-nodirmetalli metallogenik profilga ega ekanligini ko‘rsatdi. Ikkinchi bosqichda oltinni o‘rganishga taniqli olimlar akademik X.N. Baymuxamedov katta hissa qo‘shdi. X.N. Baymuhamedov, X.R. Rahmatullayev, S.K. Smirnova, V.S. Korsakov, R.P. Badalova, E.A. Dunin-Barkovskaya, K.K. Pyatkov, I.A. Pyanovskaya, A.P. Xolopov, A.S. Qurbonov, G.P. Chebotareva, G.V. Golovlev, B.F. Merkel, A.S. Aristov, G.V. Gorev, L.L. Makarskiy, I.T. Cheban, T.Ye. Vidusov, V.Ya. Blank, S.Yu. Petrov, va boshqalar o‘z ilmiy hissalarini qo‘shganlar.

Uchinchi bosqich 1991-yildan boshlanib, hozirgi kungacha davom etmoqda. Bu bosqichda olib borilgan geologiya-qidiruv ishlari yangi oltin konlari Yangi Davon, Tashkan, Tashkan 1, Kimine ochilishiga olib keldi.

Oxirgi 10 yil ichida Zirabuloq-Ziyovuddin oltin mineral xomashyo bazasi mustahkamlashga qaratilgan ilmiy izlanishlar M.M. Pirnazarov, V.D. Soy, I.V. Koroleva, V.V. Mixaylov, L.V.Sedelnikov, R.X. Mirkamalov, F.K. Divayev, L.R. Sodiqova, A.X. Turesebekov, A.I. Rustamov, M.S. Karabayev, X.J. Ishbayev, O.T. Roziqov, V.L. Shadrin, B.D. Klimenko, Sh.P. Alimov, S.Yu. Nematullayev, E.M. Maxammadiyev, Sh.X. Siddiqov, A.S. Yariyev, M.M. Yodgorov, Sh.E. Arziyev, N.Sh. Abdiyev, A.T. Sapayev va boshqalar tomonidan bajarilgan.

Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘larining fundamentining tomezozoygacha bo‘lgan stratifikatsiyalangan bo‘linmalarining yoshi kembriy davridan o‘rta karbongacha (C_2).

Kembriy-silur davriga mansub ikkita svita ajratilgan-yagnob svitasi (Є-S jag) va katarmay svitasi (Є-S kt).

Ordovik - silur davriga mansub 8 svita ajratilgan: bulyamush svitasi (O-S (?) bl), altioul svitasi (O_{2-3} al), yarmanchin svitasi (O_3-S_1 jar), daraitut svitasi (O_3-S_1l dr), katadjar svitasi (S_1vl kt), ovxanin svitasi (S_1vl ov), terikbabin svitasi (S_1 $v_{2\,tr}$), piyazin (S_2 ld-p pz) svitalari.

Jalqiraymaxal (D_1l-p *džk*), mayzak (D_1p-e *mz*), djilandi svitasi, rabindjan (D_{1-3} rb), kazanbulak (D_2žv *kz*), ayribel svitalari (D_3f *ar*) devon davriga mansub.

Karbon davriga mansub 3 ta svita ajratilgan: timsay svitasi (C_1 tm), sappen (S_{1-2} sp) va tepalik (C_{2-3} tp) svitalari.

Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘lari stratigrafik tuzilmalarining o‘ziga xos xususiyatlariga ularning turli qismlari Zarafshon-Turkiston va Zarafshon-Oloy struktura formatsion zonalarda joylashgani ta’sir ko‘rsatgan (R.X. Mirkamalov va b. bo‘yicha: Zarafshon-Turkiston bu Zarafshon terreyni, Zarafshon-Oloy struktura formatsion zonasi esa Kuldjuk-Chaqilkalon terreyni).

G‘arbiy O‘zbekiston magmatizmini o‘rganishga H.M. Abdullayev, I.H. Hamraboyev, X.B. Baymuxamedov, E.P. Izox, Z.A. Yudalevich, I.V. Mushkin, T.N. Dolimov, A.A. Kustarnikova va boshqalar katta hissa qo‘shganlar. So‘ngi yillarda

G‘arbiy O‘zbekiston magmatizmi evolyutsiyasiga oid yangi g‘oya va qarashlar asosida R. Axundjanov, T.N. Dalimov, V.I. Troiskiy, F.K. Divayev, X.D. Ishbayev va boshqalarning ishlarida o‘z aksini topgan.

Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘larining intruziv magmatizmi asosan granitoidlardan tashkil topgan. Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘lari magmatik formatsiyalari vertikal qatorining PR dan T_1 gacha bo‘lgan evolyutsiyasi quyidagi ko‘rinishga ega. 1-gabbro-giperbazitli (Nurota-Zirabuloq gabbro-giperbazitli majmuasi, O_2-O_3); 2-datsit-riolitli (daraitut datsit-riolit majmuasi, C_1); 3-metabazaltli (katarmay metabazalt majmuasi, C_2-D_1?: metabazaltlar, sharsimon toleitli bazaltlar); 4-diorit-granodiorit-porfirli (Qoraqo‘ton majmuasi, D_1-D_3; C_2?); 5-granodiorit-adamellit-granitli (qoratepa-zirabuloq granit-adamellit majmuasi, C_3); 6-ishqorli, subishqorli gabbroidlar, bazaltoidlar va lamprofirlar (Janubiy Tiyon-Shon daykali majmuasi, T_2-$_3$). Intruziv tanalarining asosiy qismi kaliy-natriyli granitoidlar, nordon va o‘rta tarkibli tog‘ jinslaridan tashkil topgan.

1-rasmda Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘larining raqamli tektonik sxemasi keltirilgan. Tadqiqot hududi murakkab burmali-surilmali tektonik tuzilishga ega. Tog‘larning burmali strukturalari turli yo‘nalishlarda cho‘zilgan. Katarmay antiklinali subkenglik yo‘nalishiga ega, Zirabuloq antiklinali shimoliy-sharqiy yo‘nalishda kuzatiladi va Rabinjon antiklinali shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda cho‘zilgan.



1-rasm. Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘larining raqamli tektonik xaritasi (A.K. Glux, A.K. Buxarin, M.K. Turapov materiallari asosida, 2020) 1 - mineragenik (geodinamik formatsion) zonalarni chegaralovchi yer yoriqliklari; 2 - ishonchli yer yoriqlari; 3 - ishonchli tektonik surilmalar (bergshtixlar surilma yo‘nalishini ko‘rsatadi); 4 - tektonik lineyamentlar; 5 - antiklinal burmalar: 5. K - Katarmay, 5. Z - Zirabuloq, 5. R - Rabinjan; 6 - gumbaz tipidagi halqali strukturalar: 6. K - Katarmay, 6. N - Nurota, 6. A - Aqtov; 7 - fundament tog‘ jinslari; 8 - alp davriga mansub Karmana sinklinali; 9 - bufer zonalar.

Burmali strukturalarga nisbatan Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘larining ma’dan obyektlarini joylashuv qonuniyatlarini tahlil qilish maqsadida yirik burmali strukturalar atrofida radiusi 2 km teng bo‘lgan bufer zonalar chiziq yaratildi.

Burmali strukturalardagi oltin obyektlari subkenglik, shimoliy-g‘arbiy, shimoliy-sharqiy yo‘nalishlar bo‘yicha uchrashishi kuzatiladi. Eng ko‘p obyektlar, 132 ta obyekt (257,9 kv.km) subkenglik yo‘nalishidagi Katarmay antiklinali bilan bog‘liq. Shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishdagi burmali strukturalarda 73 ga yaqin obyektlar

joylashgan (373,7 kv.km). Shimoliy-sharqiy yo‘nalishdagi burmali strukturalar ulushiga 12 ga yaqin (158,2 kv.km) obyektlar to‘g‘ri keladi.

Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘larining metallogeniyasiga xos asosiy foydali qazilmalar - oltin, volfram, qalay, uran (2-rasm).

Rasmda oltin ma’dan obyektlari asosiy qismi Ziyovuddin tog‘larining shimoliy-sharqiy qismida joylashgani yaqqol ko‘rinib turibdi. Konlarni qamrab oluvchi tog‘ jinslari qum va slanes yotqiziqlaridan iborat bo‘lib ushbu tog‘ jinslarining yoshi munozarali: proterozoydan devongacha bo‘lib kelmoqda. Ma’danli maydon konlari va namoyondalarining 87% joylashuvi ezilish zonalari va shimoliy-sharqiy yo‘nalishdagi yer yoriqlarining kesishish tugunlari bilan belgilanadi.



2-rasm. Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘larining asosiy ma’dan foydali qazilmalari joylashgan raqamli xaritasi (M.U. Isoqov va boshqalarning Rio Tinto kompaniyasi uchun tayyorlagan materiallari asosida).

Olib borilgan metallogenik tahlillarga ko‘ra, Ziyovuddin ma’danli maydonining shimoliy-sharqiy va shimoliy-g‘arbiy davomidagi yopiq hududlarda Yangi Davon, Tashkan, Tashkan 1, Tillatog‘ konlariga o‘xshash yangi oltin konlar ochilishi bashorat qilinadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi **“Oltin ma’danli konlarida geologiya-qidiruv ishlari uslubiyoti”** bobi oltin konlarining jahondagi mavjud bo‘lgan klassifikatsiyalarini taxliliy ko‘rib chiqish, geolgiya-qidiruv ishlarida qo‘llashga oid ilmiy-metodik tadqiqotlar holati taqdim etilgan.

Oltin konlarida geologiya-qidiruv ishlarini olib borish uslubiyotini samaradorligini oshirish murakkab va shu bilan birga dolzarb masala hisoblanadi. Jahon va O‘zbekistonning sanoat ahamiyatiga ega bo‘lgan endogen oltin konlarining asosiy xossasi bu ularning ma’dan tanalarining morfologik turlari, joylashish va shakllanish sharoitlari, ma’danlarning moddiy tarkibi juda xilma xilligi. Buni turli yondashuvlarga asoslangan, masalan, shakllanish chuqurligi, yoshi, moddiy tarkibi,

genezisi (shakllanish sharoitlari), morfologiyasi va boshqa omillar asosida tuzilgan ko‘plab tasniflar (klassifikatsiyalar) tasdiqlaydi.

Oltin konlarining umumlashtirilgan tasnifi uchun barcha omillar va geologik jarayonlarni to‘liq hisobga olishning imkoniyati mavjud emas. Ayniqsa, qazib olishga tayyorlanayotgan oltin konlarining barcha geologik xususiyatlari va xossalarini qamrab oluvchi geologik-genetik tasniflarni yaratish qiyinchiliklari olimlarni konlarning sanoat turlari tasnifini yaratish g‘oyasiga olib keldi. Oltinning sanoat turlari tasnifini birinchi bo‘lib V.M. Kreyter ishlab chiqqan.

O‘zbekiston endogen oltin konlarini sanoat turlari birinchi tasnifi V.D. Soy, I.M. Golovanov, B.A. Isaxodjayev va boshqalar tomonidan yaratilgan. Ushbu tasnifni avzalligi oltin konlarining ma’lum bir geologik sharoitda moddiy tarkibi, strukturaviy xususiyatlari, texnologik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari asosida qazib olishda ishlatiladigan texnologiyalar va ularni samaradorligini baholash imkonini beradi.

Oxirgi yillarda O‘zbekiston oltin konlarining yangi ma’lumotlar asosida yaratilgan bir necha tasniflari mavjud. Masalan M.K. Turapov tomonidan tektonofizik omillar asosida yaratilgan oltin konlarini bashoratlashda ishlatiladigan tasnif; M.M. Pirnazarovning geologik-geokimyo qidiruv komplekslarini tuzishda qo‘llaniladigan tasnifi; R.X. Mirkamalovning konlarning shakllanishlarining turli geodinamik vaziyati asosida yaratgan tasniflarini keltirish mumkin.

O‘zbekistonda qazib olinayotgan endogen oltin ma’danli konlarning eng so‘nggi razvedka maqsadlarida tizimlashtirilishi M.U. Isoqov tomonidan 2017-yilda amalga oshirilgan. Ushbu tizizmlashtirishdan “O‘zbekiston oltin konlarini geologik va sanoat turlariga ajratish, baholash va qidirish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar” ni tayyorlashda foydalanilgan. Unda O‘zbekistonning oltin-sulfid-kvars sanoat turidagi konlari ma’dan tanalarining morfologiyasi farqlanishi asosida 6 ta kichik turlarga bo‘lingan: 1) qizilolmasoy kichik turida oltinning ma’danlashuvi minerallashgan, tomirli zonalar va xar xil geologik formatsiyalar orasida joylashgan; 2) ko‘chbuloq kichik turida ma’dan tanalari quvursimon va minerallashgan zonalarni tashkil qiladi; 3) balpantou kichik turi ma’dan tanalari morfologiyasi zinali tomirlar va minerallashgan zonalardan iborat; 4) marjonbuloq kichik turi ma’dan tanalari ustunsimon va qo‘ziqorin shaklidagi shtokverklar, plita va tasma shaklidagi ma’dan tanalari bilan ifodalanadi; 5) sarmich kichik turining ma’dan tanalari morfologiyasi-tomirlar va ularni zonali joylashuvi; 6) bulutkon kichik turining oltin ma’danli tanalari esa skarnlardagi minerallashgan zonalarni tashkil qiladi.

Dissetratsiya ishining “**Ziyovuddin ma’danli maydonida oltin konlarini joylashuvi va shakllanish qonuniyatlari**” deb nomlangan uchinchi bobi 7 ta bo‘limdan iborat. Ushbu bobda Ziyovuddin ma’danli maydonining mintaqaviy geologik-strukturaviy joylashuvi ko‘rib chiqilgan; oltin konlari Qoraqo‘ton, Yangi Davon, Tashkan, Tashkan 1, Tillatog‘, Beshquduq va oltinning yirik namoyondalari geologik tavsiflari keltirilgan; oltin ma’danlashuvining joylashuviga geologik-strukturaviy omillarni ta’sirini taxlili natijalari; ma’danlashuvning moddiy tarkibini o‘rganishda olingan analitik tahlilar natijalari; ularning metasomatik o‘zgarishlari; ma’dan tanalarining morfologik turlari va xosil bo‘lish sharoitlari (genezis) yoritilgan.

Tektonik omillar. Ziyovuddin ma’danli maydoni oltin konlari aksariyati (132 ta oltin obyektlari) Katarmay antiklinal burmasining ta’sir zonasida joylashgan. Antiklinal burmaning shimoliy qanoti eng to‘liq saqlanib qolgan; janubiy qanotini Navro‘zali yer yorig‘i kesib tashlagan va kam dislokatsiyalangan mezozoy va kaynozoy cho‘kindilari bilan qoplangan.

Antiklinalning qanotlari yuqori tartibdagi burmalar va turli yoshdagi ko‘plab yoriqlar bilan murakkablashgan. Yoriqlarni aksariyati subkenglik yo‘nalishiga mansub (3-rasm).



3-rasm. Ziyovuddin ma’danli maydonining ma’dan nazorat qiluvchi yer yoriqlari (V.V. Mixaylov, S.T. Maripova materiallari asosida, 2023).

Ziyovuddin ma’danli maydonidagi barcha oltin konlari, ma’dan namoyonlari va alohida ma’dan tanalari Katarmay antiklinal burmasining shimoliy qanotida, chuqur yer yorig‘larining subkenglikdagi tik tushuvchi Qoraqo‘ton zonasi ichida joylashgan.

Akademik F.A. Usmonov usulidan foydalangan holda yer yoriqlari ta’sir zonasida oltin ma’danli obyektlarning joylashish zichligi bo‘yicha o‘tkazilgan statistik metallogenik rayonlashtirish shuni ko‘rsatdiki, barcha yuqori karbongacha bo‘lgan uzilmali buzilishlar uzunligi 30 km va kengligi 3 km bo‘lgan yagona Qoraqo‘ton ma’danli zonasini tashkil qiladi. Ushbu zona 3 ta Qoraqo‘ton, Qizbibi, Shimoliy nomli shoxlarga bo‘linadi. Qoraqo‘ton yer yoriqligi zonasining 3 ta shoxi shimoliy-sharqiy, shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishlardagi ko‘plab mayda parallel, kesuvchi yer yoriqlaridan shimoliy-sharqiy, shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishdagi darzliklardan tashkil topgan. Qoraqo‘ton ma’dan zonasini tektonik jixatdan zaiflashgan bo‘lib, maydalangan tog‘ jinslaridan tashkil topgan.

Hisoblangan oltin obyektlarining ma’dan zonasi bilan fazoviy bog‘lanish koeffitsiyenti d=0.85 ga teng. Bu esa Ziyovuddin ma’danli maydonining oltin ma’danlashuvini shakllanishida Qoraqo‘ton yer yorig‘ligi zonasi va uning 3 ta shoxi yetakchi ro‘l o‘ynaganligini raqamli asosi ekanligini isbotlaydi Oltin ma’danli obyektlarining eng katta zichligi Qoraqo‘ton yer yorig‘i zonasining Qizbibi shoxida qayd etilgan bo‘lib undan keyingi o‘rinlarda oltinning joylashish zichligi bo‘yicha Qoraqo‘ton va Shimoliy shohlarga to‘g‘ri keladi. Shunday qilib, Qoraqo‘ton yer

yoriqlari zonasi oltin ma’danli obyektlarning eng yuqori konsentratsiyasini (zichligini) nazorat qiladi.

Litologik-stratigrafik omillar. Ziyovuddin ma’danli maydonining oltin ma’danlashuvini qamrab oluvchi tog‘ jinslari metamorfiklashgan effuziv-terrigen tarkibdagi quyi devon davriga mansub (D_1 kt) katarmay svitasi bilan taqdim etilgan. Svita xosilalari litologik xususiyatlariga ko‘ra o‘zaro sekin-asta o‘zgarishga ega bo‘lgan 4 ta kichik svitalarga bo‘lingan. Oltin konlarining 90% ga yaqini litologik tarkibi jihatdan xilma-xil bo‘lgan katarmay svitasining uchinchi va to‘rtinchi kichik svitalari orasida joylashganligi aniqlandi.

Magmatik omillar. Olib borilgan tadqiqotlar oltin konlarining joylashuviga quyidagi magmatik xosilalar ta’sir ko‘rsatgani aniqlandi. Quyi devon yotqiziqlariga mayda shtoklar, o‘rta va nordon tarkibli daykalar kirgan. Ushbu daykalar yoshi yuqori karbon-quyi perm (C_3-P_1) davriga mansub. Ularning asosan 3 ta turi ajratiladi: 1) biotit-rogovoobmankoviy granodiorit-porfirlar; 2) kvars diorit porfiritlar; 3) kersantit-spessartit lamprofirlari.

Ma’danlar va qamrovchi jinslarning mineralogik xususiyatlari va moddiy tarkibi o‘rganish uchun Yangi Davon, Tashkan va yana boshqa oltin konlarida dala tadqiqotlari o‘tkazilgan va namunalar olingan. Analitik tadqiqotlar 2022-yilda yuqori texnologiyalar markazida (Toshkent shahri); JEOL rentgen mikroanalizatorida; mass-spektrometriya, kimyoviy tahlil, zolotometriya, probir tahlillari Navoiy kon-metallurgiya kombinati (Navoiy shahri) laboratoriyasida va mineralogik taxlil “Mineral resurslar instituti” DM laboratoriyasida o‘tkazilgan.

4.1-4.12 rasmlarda Yangi Davon va Tashkan oltin konlarini mineralogik taxlillar natijalari keltirilgan. Yangi Davon konining ma’danlari va qamrovchi jinslarini moddiy tarkibi taxlillari V.D. Soy va Sh.P. Alimovlarni avvalgi tadqiqotlariga mos kelishi aniqlandi. Qoraqo‘ton, Tillatog‘ konlarini taxlillari esa V.V. Mixaylov va A.D. Kanash ma’lumotlari bilan muvofiqligini ko‘rsatdi. Ziyovuddin ma’danli maydonidagi oltin konlarida ma’dan minerallaridan sof oltin, kumush sulfoantimoniti, pirit, xalkopirit, arsenopirit, pirrotin, temir gidroksidlari, magnetit, ilmenit, rutil, kovellin topilgan. Ziyovuddin ma’danli maydonidagi oltin konlari oltin-sulfid-kvarsli formatsiyaga, sulfidlar miqdori bo‘yicha esa kambag‘al sulfidli mineral turiga kiradi. Asosiy sulfidli minerallari pirit va arsenopiritdir. 1-jadvalda Yangi Davon va Tashkan oltin konlarida gipogen va gipergen minerallarni tarqalish darajasi keltirilgan.

Ziyovuddin ma’dan maydonida ezilish, maydalanish zonalari va ma’dan hosil qiluvchi strukturalar doirasida metasomatik o‘zgarishlar aniqlangan. Ular listvenitlar, berezitlar, limonitlar ko‘rinishida namoyon bo‘lgan.

Metasomatitlar va ma’danlar kenglik, subkenglik va shimoliy-sharqiy tektonik buzilishlarga to‘g‘ri keladi. Ularning shimolga, kamroq shimoliy-g‘arbga 55^0-75^0 burchak ostida tushishi kuzatiladi. Oltin ma’danlashuvi kvarsli, dala shpati-kvarsli oltinli tomirlaridan iborat. Ularning brekchiyalangan joylari turmalin bilan sementlanadi. Ular granodiorit-porfir va lamprofir daykalari bilan fazoviy assotsiatsiyada joylashgan. Ma’dan tanalarining qalinligi 0,5 - 4 metrgacha, kamdan-kam hollarda 5-6 metrgacha yetadi. Ma’dan tanalarining uzunligi 10 metrdan 200-300 metrgacha bazi xollarda uzunligi 500 metrdan ortiq ma’dan tanalari uchraydi.



4.1-rasm. Sof tug‘ma oltin kristali., katt. 1000^{x}



4.2 - rasm. Piritda sof oltin qo‘shimchasi. 1-sof oltin, 2-pirit. Katt. 400^{x}



4.3 - rasm. 1-kvars 2- seretsit. Katt. 40^{x}



4.4 - rasm. 1-Plagioklaz, 2-kvars, 3-xlorit, 4-seretsit, 5-temir oksidlari. Katt. 40^{x}



4.5- rasm. 1-kvars, 2-biotit. Katt. 40^{x}



4.6- rasm. 1- Piroksen, 2- plagioklaz. Katt. 40^{x}



4.7 - rasm. 1- Kvars, 2-seretsit, 3-xlorit. Katt.40^{x}



4.8- rasm. 1-gyotit Katt.40^{x}



4.9 - rasm. Ma’danli minerallar agregati. 1-pirit, 2-xalkopirit, 3-arsenopirit, 4-sulfoantimonit. Katt. 1000^{x}



4.10- rasm. Kovellin xalkopirit bilan o‘sishmada. 1-xalkopirit, 2-kovellin, 3-pirit. Katt. 1000^{x}



4.11- rasm. 1-pirit, 2-rutil. Katt.400^{x}



4.12 - rasm. 1-pirit, 2-xalkopirit, 3-galenit, 4-sfalerit. Katt. 52^{x}.

4.1-4.12. – rasmlar. Tashkan oltin konining ma’dan tanalarini moddiy tarkibi taxlil natijalari.

1-jadval

Yangi Davon va Tashkan oltin konlarida gipogen va gipergen jarayonlarda minerallarni tarqalishi

Tarqalishlari	**Gipogen**		**Gipergen**
	noma’dan	**ma’danli**	
Keng tarqalgan	kvars (4.3-rasm), albit, seritsit (4.4-rasm), plagioklaz (4.4-rasm) mahsul*	Sof oltin (4.1-rasm), pirit (4.2-rasm), arsenopirit (4.9-rasm), xalkopirit (4.9-rasm),	Gidrooksidlar temir (4.4-rasm), getit, (4.8-rasm), limonit*, skorodit xalkozin*, kovellin (4.10-rasm).
O‘rtacha tarqalgan	biotit (4.5-rasm), xlorit (4.7-rasm), piroksin (4.6-rasm), epidot*, ankerit*, kalsit*.	Markazit pirrotin sfalerit*, galenit xira ma’dan*.	Gips*, gematit*, lepidokrokit*, glinali minerallari*.
Kamyob	sirkon*.	rutil (4.11- rasm.), Vismutin*, magnetit*.	

** V.D. Soy, Sh.P. Alimov (2017) va Samarqand markaziy geologiya qidiruv ekspeditsiyasining materiallari (2020) qo‘llanilgan*

